

TIJORAT BANKLARIDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHDA FAKTORING XIZMATLARIDAN FOYDALANISH DARAJASI.


Usmonov Abrorxon Alixon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, mustaqil tadqiqotchisi.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu subyektlarning asosiy muammolaridan biri — qisqa muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirishdir. An'anaviy kreditlash mexanizmlari ko'pincha garov ta'minoti, yuqori foiz stavkalari va murakkab tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lib, kichik biznes uchun cheklovlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan, faktoring xizmatlari muqobil moliyalashtirish instrumenti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan qo'llanilayotgan instrumentlar tarkibida faktoring xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida faktoring kichik biznesning aylanma kapital muammosini hal etuvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston bank amaliyotida ushbu xizmatdan foydalanish darajasi uzoq vaqt davomida past bo'lib kelgan. So'nggi yillarda raqamli platformalar, elektron hisob-faktura tizimi va savdo operatsiyalarining shaffoflashuvi natijasida faktoring xizmatlarining amaliy qo'llanishi sezilarli darajada faollasha boshladi.

2025 yil davomida faktoring operatsiyalari hajmining keskin oshishi kuzatilgan. Oylar kesimidagi dinamik ma'lumotlar faktoring xizmatlari yil boshida nisbatan past darajada bo'lganini, biroq yilning ikkinchi yarmidan boshlab sezilarli o'sish boshlanganini ko'rsatadi. Ayniqsa iyun oyidan boshlab faktoring hajmining o'sishi banklar tomonidan ushbu mahsulotni faol joriy etish va tadbirkorlik subyektlarining ushbu xizmatdan foydalanish darajasi ortganini bildiradi. Dekabr oyida qayd etilgan rekord ko'rsatkich esa faktoringning aylanma kapitalni boshqarish vositasi sifatida amaliyotda keng qo'llanilayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-sonli Farmoni imzolanganidan keyin, kredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga 2024-yilning so'nggi 4 oyi hamda 2025-yil davomida jami 5,8 trln so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatildi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi kredit tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida faktoring xizmatlarining dinamikasi (mlrd so'mda)¹.

Mazkur ma'lumotlarga ko'ra, 2024 va 2025-yillarda faktoring xizmatlari hajmi umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, davriy tebranishlar ham kuzatiladi. Bu esa mazkur moliyaviy instrumentning iqtisodiy faollik, mavsumiylik va bank siyosatiga sezgirligini ko'rsatadi.

Birinchidan, 2025-yilda faktoring xizmatlari hajmi 2024-yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatiladi. Xususan, 2025-yil yanvar oyida 279 mlrd so'mni tashkil etgan ko'rsatkich yil yakuniga kelib 1 162 mlrd so'mga yetgan. Bu esa yil davomida qariyb 4 baravarga o'sishni anglatadi. Mazkur holat tijorat banklari tomonidan faktoring xizmatlarini kengaytirish va kichik biznes subyektlari orasida ushbu instrumentga bo'lgan talabning ortib borayotganini ifodalaydi.

Ikkinchidan, 2024-yilda faktoring xizmatlari hajmi nisbatan past darajada bo'lib, yil boshida 107 mlrd so'mni tashkil etgan va dekabr oyiga kelib 630 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 2024-yilda ham ijobiy o'sish tendensiyasi mavjud bo'lganini ko'rsatadi, biroq o'sish sur'ati 2025-yilga nisbatan ancha sust bo'lgan.

Uchinchidan, har ikkala yilda ham mavsumiy tebranishlar kuzatiladi. Masalan, 2025-yilda iyul oyida yuqori ko'rsatkich (1 078 mlrd so'm) qayd etilgan bo'lsa, avgust oyida keskin pasayish (624 mlrd so'm) kuzatiladi. Bu holat iqtisodiy faoliyatning davriy xususiyatlari, xususan, yozgi davrda biznes faolligining qisqarishi yoki to'lov intizomidagi o'zgarishlar bilan izohlanishi mumkin.

To'rtinchidan, yilning oxirgi choragida (oktyabr–dekabr) faktoring xizmatlari hajmining keskin oshishi kuzatiladi. Ayniqsa, 2025-yil dekabr oyida maksimal daraja (1 162 mlrd so'm) qayd etilgan. Bu esa korxonalar tomonidan yil yakuniy hisob-

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

kitoblarni amalga oshirish, likvidlikni ta'minlash va aylanma mablag'larni tezlashtirish zarurati bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, faktoring xizmatlari kichik biznesni moliyalashtirishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yilda kuzatilgan yuqori o'sish sur'atlari ushbu moliyaviy instrumentning tijorat banklari faoliyatida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavsumiy tebranishlar mavjudligi faktoring xizmatlarini yanada barqaror rivojlantirish uchun risklarni boshqarish va rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 12.08.2024 yildagi PF-109-son
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari. www.cbu.uz
3. Ye Wang, Shuang Wu, Impact of mobile banking on small business lending after bank branch closures, Journal of Corporate Finance, Volume 87, 2024, 102593, ISSN 0929-1199,
4. Golovanov, I. D., & Frolova, V. B. (2024). Development of risk management approaches in factoring companies. ResearchGate.